



JADIDCHILIK PARADIGMASINING ESTETIK TALQINI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20201366>

Nuraliyeva Nasiba Axmadqulovna

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti Ijtimoiy-gumanitar kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi.

nuraliyevanasibahon@gmail.com

Annotasiyasi: *Mazkur maqolada jadidchilik paradigmasining estetik talqini, uning milliy madaniyat va adabiyot taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilindi. Jadid adiblar ijodida ma'rifat, erkin fikr, milliy uyg'onish va badiiy tafakkur masalalari estetik nuqtai nazardan o'rganildi. Tadqiqot IMRAD (Introduction, Methods, Results and Discussion) modeli asosida amalga oshirildi. Natijada jadidchilik nafaqat ijtimoiy-siyosiy harakat, balki yangi estetik dunyoqarash sifatida ham shakllangani asoslandi. Shuningdek, jadid adabiyotida go'zallik, fojeaviylik, ulug'vorlik va estetik ideal kategoriyalarining o'zaro munosabati tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik, estetika, milliy uyg'onish, ma'rifat, badiiy tafakkur, modernizasiya, dramaturgiya, paradigma, konsepsiya, publisistik, germeneytik,*

Аннотация: *В данной статье анализируется эстетическая интерпретация парадигмы джадидов, её роль в развитии национальной культуры и литературы. С эстетической точки зрения исследованы вопросы Просвещения, свободомыслия, национального пробуждения и художественного мышления в творчестве писателей-джадидов. Исследование проводилось на основе модели IMRAD (Введение, Методы, Результаты и Обсуждение). В результате установлено, что джадидизм сформировался не только как социально-политическое движение, но и как новое эстетическое мировоззрение. Также проанализирована взаимосвязь между категориями красоты, трагедии, величия и эстетического идеала в литературе джадидов.*

Ключевые слова: *джадидизм, эстетика, национальное пробуждение, Просвещение, художественное мышление, модернизация, драматургия, парадигма, концепция, журналистика, герменевтика,*

Abstract: *This article analyzes the aesthetic interpretation of the Jadidism paradigm and its role in the development of national literature and culture. The aesthetic expression of enlightenment, national awakening, freedom of thought and artistic consciousness in Jadid literature is studied. The research is conducted on the basis of the IMRAD model.*



The article concludes that Jadidism emerged not only as a socio-political movement but also as a new aesthetic worldview in Uzbek cultural thinking.

Keywords: *Jadidism, aesthetics, national awakening, enlightenment, artistic thinking, modernization, dramaturgy, paradigm, concept, journalistic, hermeneutic,*

KIRISH

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuzaga kelgan Jadidchilik harakati milliy tafakkur taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, ilm-ma'rifatni rivojlantirish va milliy ongini uyg'otishni asosiy maqsad qilib belgiladilar. Bu harakat nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki estetik qarashlar tizimini ham shakillantiradi.

Jadid adabiyotida go'zallik tushunchasi faqat badiiy zavq, bilan cheklanmay, millat taqdiri, ozodligi va taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashdi. Shu jihatdan jadidchilik estetikasi milliy madaniyatning yangilanish jarayonini aks ettiruvchi muhim fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida Usmon Nosir alohida o'rin tutadi. Uning she'riyatida inson qalbi, ozodlik, muhabbat, tabiyat va hayot go'zalligi yuqori badiiyligi bilan tasvirlangan.

Shoir ijodida go'zallik faqat tashqi hodisa sifatida emas, balki ma'naviyatini yuksaltiruvchi estetik kuch sifatida namoyon bo'ladi. Jadid adiblari adabiyotni jamiyatni yangima'naviy qurol sifatida baholab, ular badiiy ijod orqali insonlarni milliy o'zlikni anglash va erkin fikrni bunyod qilishga harakat qildilar. Shu sababli jadidchilik estetikasida

go'zallik faqat badiiy shakil emas, balki ma'rifiy jihatdan taraqqiyot vositasi sifatida ham talqin qilindi. Masalan; ilm-go'zallik; ma'rifat-komillik; ozodlik-estetik ideal; milliy uyg'onish-yuksak qadryat hisoblangan. Ayniqsa Abdulla Avloniy asarlarida axloqiy go'zallik g'oyasi ustuvor ahamiyatga ega. Uinson kamolatini jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida baholaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida milliy-estetik merosni qayta anglash va jadidlar tafakkurini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlod ma'naviyatini shakillantirishda klassik adabiyotning ahamiyati ortib bormoqda. Usmon Nosir ijodidagi go'zallik talqini insonparvarlik, erkinlik va hayotsevarlik g'oyalari bilan uyg'un holda aks etadi.

Tadqiqotning maqsadi-jadidchilik paradigmasining estetik mohiyatini tahlil qilish va uning milliy adabiyot hamda madaniyat rivojidagi ahamiyatini ochib berish va Usmon Nosir asarlarida go'zallikning estetik ifodasini tahlil qilish va uning badiiy-falsafiy asoslarini yoritib berish.

Tadqiqot metodlari: Maqolani tayyorlash jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi.

- Tarixiy-qiyosiy tahlil;
- Estetik tahlil metodi;
- Germenevtik yondashuv;



- Badiiy matn tahlili;
- Konseptual tahlil usuli;

Tadqiqot manbalari sifatida jadid adiblarning badiiy va publisistik asarlari, shuningdek adabiyotshunos olimlarining ilmiy ishlari o'rganildi. Masalan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Cho'lpon asarlari hamda jadidchilikka oid ilmiy va tadqiqot ob'ekti sifatida Usmon Nosirning she'rlari va dramatik asarlari tanlab olindi. Asarlardagi obrazlar, tasvir vositalari va estetik kategoriyalar tahlil qilindi.

Natijalar: Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Usmon Nosir ijodida go'zallik bir nechta estetik shakllarda namoyon bo'ladi.

1. Tabiat go'zalligi; Shoir tabiat manzaralarini jonli va emossional tasvirlaydi. Tabiat inson ruhiyati bilan uyg'unlashgan holda berilgan. Masalan, bahor, quyosh, shamol kabi obrazlar hayot va erkinlik ramzi sifatida qo'llaniladi.

2. Inson qalbining go'zalligi; Usmon Nosir uchun haqiqiy go'zallik insonning ichki dunyosi bilan bog'liq. Mehr, sadoqat, jasorat va muhabbat uning asarlarida estetik ideal darajasiga ko'tarildi.

3. Vatan va ozodlik estetikasi Shoir Vatanni muqaddas va go'zal tushuncha sifatida tasvirlaydi. Ozodlik g'oyasi uning she'rlarida romantic pafos bilan uyg'unlashgan.

4. Badiiy tasvir vositalari Tashbeh, istiora, jonlantirish va ramziy obrazlar

shoir estetikasining muhim xususiyatlarini tashkil etadi. Bu esa she'rlarga yuqori emossional ta'sir bag'ishlaydi.

5. Milliy uyg'onish estetikasi Jadidlar ijodida millat taqdiri markaziy o'rin egallaydi. Ular adabiyotni xalqni uyg'otuvchi ma'naviy kuch sifatida talqin qiladilar. Shu bois estetik ideal milliy taraqqiyot g'oyasi bilan bog'landi.

6. Ma'rifat va go'zallik munosabati Jadidlar uchun ilm-ma'rifat jamiyatni go'zallashtiruvchi asosiy omil hisoblangan. Asarlarda bilimli inson komillik va estetik ideal timsoli sifatida tasvirlanadi.

Ma'rifat estetikasi jadid adiblari ilm va ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omoli sifatida baholadilar. Ular uchun haqiqiy go'zallik inson ongi va tafakkurining yuksalishi bila belgilanadi. Abdulla Avloniy shunday yozadi:

“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat masalasidir” ushbu iqtibos jadid estetikasida ma'naviy komillikning ustuvor ahamiyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

7. Ijtimoiy fojeaviylik talqini Jadid adabiyotida jaholat, mustamlakachilik va ijtimoiy tanazzul fojeaviy holat tariqasida aks ettiriladi. Bu fojeaviylik orqali mualliflar millatni uyg'otishga chorlaydi. Fojeaviylik orqali jadid adiblari millatning og'ir ahvolini ko'rsatish, xalqni ko'zini ochish va ozodlik g'oyalari targ'ib qilishga harakat qildilar. Bu estetik kategoriya ayniqsa Cho'lpon



ijodida kuchli emossiyanal tasvir bilan ifodalangan.

8. Yangi inson kosepsiyasi Jadidlar estetikasida yangi fikrlaydigan, zamonaviy bilimga ega inson obrazi muhim o'rin tutadi. Bu obraz milliy modernizasiya go'yalarining badiiy ifodasi hisoblanadi. Jadidchilik va milliy yangilanish bilan bog'liq, ular milliy madaniyatni saqlagan holda zamonaviy taraqqiyotga erishishni maqsad qildilar. Jadidlar fikricha;

“Millat taraqqiyoti ma'rifat va estetik ong rivojsiz amalga oshmaydi”.

Bu g'oya ularni badiiy va publisistik asarlarda etakchi konsepsiya sifatida namoyon bo'lgan. Jadidchilik estetikasida yangi inson obrazi muhim o'rin tutadi. Bu inson:

1. Bilimli;
2. Zamonaviy dunyoqarashga ega;
3. Vatanparvar;
4. Erkin fikrlovchi shaxs

sifatida tasvirlanadi.

Abdurauf Fitrat inson kamolatini millat taraqqiyoti bilan bog'laydi.

9. Teatr va dramaturgiya estetikasi Jadidlar teatrni xalqni uyg'otuvchi eng kuchli ta'sirchan sa'nat turi deb hisobladilar. Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa jadidlar teatrni xalq ma'naviyatini shakillantiruvchi estetik vosita sifatida baholadilar. Dramaturgiya orqali jamiyat muammolari badiiy ifoda etildi, jaholat va qoloqlik tanqid qilindi. Mahmudho'ja Behbudiyning dramalarida;

Ma'rifat g'oyasi;

Ijtimoiy tengsizlik;

Milliy fojea;

Inson taqdiri masalalari estetik talqin qilingan.

Jadid dramaturgiyasi milliy teatr estetikasini shakillanishida muhim bosqich bo'ldi. Jadid matbuoti va badiiy tafakkuri jadid gazeta va jurnallarni millat ma'naviyatini shakillantiruvchi muhim omil sifatida baholadi. Matbuot orqali estetik qarashlar xalq ongiga singdirildi. Ayniqsa;

“Taraqqiy”, “Samarqand”, “Oyna” kabi nashrlar milliy estetik tafakkur rivojiga katta hissa qo'shdi. Publisistikada badiiylik va ijtimoiilik o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ldi.

Jadidlar teatrni xalqni uyg'otuvchi muhim estetik vosita deb hisobladilar. Mahmudxo'ja Behbudiy dramalarida ijtimoiy tengsizlik, jaholat va milliy fojea masalalari keng yoritilgan.

Muallifning “Padarqush” dramasi o'zbek milliy dramaturgiyasi taraqqiyotida muhim estetik hodisa bo'ldi.

10. Milliy uyg'onish va estetik ideal jadid adabiyotida milliy ozodlik va taraqqiyot g'oyasi estetik ideal sifatida talqin qilinadi. Millat taqdiri, Vatan kelajagi va halq ma'naviyati asarlarining markaziy mavzusiga aylandi.

Cho'lpon she'riyatida erkinlik g'oyasi yuqori emosional pafos bilan ifodalanadi:

“Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki sen ham hur tug'ulg'onsan”



Bu misralarda erkinlik nafaqat siyosiy, balki estetik qadryat sifatida ham namoyon bo'ladi.

Muhokama: Jadidchilik estetikasi muayan tarixiy va ijtimoiy sharoit ta'sirida shakillangan bo'lib, XIX asr ohirida Turkistonda mustamlakachilik siyosati kuchayishi, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og'irlashishi milliy ziyolilarni yangi yo'l izlashga undadi. Shu jarayonida jadidlar nafaqat siyosiy va ma'rifiy islohatlar, balki badiiy tafakkurni ham yangilash zarurligini angladilar. Jadid estetikasi quyidagi omillar ta'sirida rivojlandi;

1. Sharq mumtoz adabiyoti an'analari;
2. Evropa ma'rifatparvarlik g'oyalari;
3. Turk va tatar jadidchilik ta'siri;
4. Milliy ozodlik harakatlari;
5. Matbuot va teatr sa'natining rivojlanishi.

Bu omillar jadid adabiyotida yangi estetik qarashlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidchilik estetikasi Sharq va G'arb madaniy tafakkuri sintezi asosida shakillangan. Unda an'anaviy milliy qadryatlar zamonaviy modernizasiya asosida shakillantirilgan. Jadidchilik paradigmasi milliy estetik tafakkur tarixida muhim bosqich hisoblanadi. U an'anaviy adabiy qarashlar bilan zamonaviy evropacha fikrlash usullarini uygunlashtiradi. Jadid adiblari adabiyotning ijtimoiy vazifasini

kuchaytirish bilan birga, uning estetik imkoniyatlarini ham kengaytirdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat ijodida milliy taraqqiyot g'oyasi estetik va falsafiy qarashlar bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Ular uchun adabiyot-xalqni uyg'otuvchi ma'naviy kuch hisoblangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik estetikasi keying o'zbek adabiyoti rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, milliy dramaturgiya, realistic proza va publisistika taraqqiyotida jadidlarning o'zini beqiyosdir.

Usmon Nosir estetik qarashlari o'zbek romantic poezasining muhim bosqichini tashkil etadi. Uning ijodida go'zallik hayot haqiqati bilan chambarchas bog'langan. Shoir uchun go'zallik-inson ma'naviy kamolotga etaklovchi kuch. Adabiyotshunoslar Usmon Nosir ijodini tahlil qilishda asosan uning erkinlik va insonparvarlik g'oyalariga alohida e'tibor qaratishgan. Biroq estetik kategoriyalar tizimi hali to'liq tadqiq qilinmagan. Shu jihatdan mazkur maqola shoir ijodidagi estetik tafakkurni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Muhokama jarayonida yana shu narsa aniqlandiki, Usmon Nosir ijodidagi fojeaviylik ham jadidchilik estetikasi bilan uzviy bog'liq.

Shoir asarlarida inson taqdiri, erkinlik uchun kurash va hayot ziddiyatlari chuqur emosional ta'sir bilan yoritilgan. Bu fojeaviylik orqali ijodkor inson qadri va ozodlik g'osining ulug'vorligini ko'rsatishga intiladi.



Hulosa; Shuni hulosa qilib aytganda Usmon Nosir ijodida go'zallik kategoriyasi keng badiiy-falsafiy mazmunga ega. Shoir asarlarida tabiat, inson va Vatan go'zilligi o'zaro uyg'un holda tasvirlangan. Uning estetik qarashlari milliy adabiyot va ma'naviy tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik paradigmasi nafaqat ijtimoiy-siyosiy harakat, balki milliy estetik tafakkurning yangilanish bosqichi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Jadid adiblari go'zallikni ma'rifat, milliy uyg'onish va inson kamolati bilan bog'liq holda talqin qildilar. Jadidchilik estetikasi milliy adabiyotning yangi badiiy shakllari va g'oyaviy yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Uning g'oyaviy-estetik merosi bugungi kunda ham milliy madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga muhim manba bo'lib hizmat qilmoqda.

Usmon Nosir ijodi o'zbek adabiyotida jadidchilik paradigmasining estetik takomilida muhim o'rin egallaydi. Shoir jadid adablari boshlab bergan milliy uy'gonish, erkin fikr va ma'rifat g'oyalarini yangi badiiy-estetik bosqichga olib chiqqan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Usmon Nosir she'riyatida inson erkinligi, Vatanga muhabbati, milliy g'urur va hayot go'zalligi romantic pafos orqali yuksak badiiylilikda ifodalangan. U jadidchilik estetikasiga xos bo'lgan ma'naviy uyg'onish

g'oyalarini kuchli emossiyanal ta'sir va poetic obrazlar vositasida boyitdi. Ayniqsa, shoir asarlaridagi erkinlik ruhi va inson qadrini ulug'lash g'oyasi jadid estetikasining davomiyligini ko'rsatdi.

Shuningdek, Usmon Nosir ijodida g'ozallik kategoriyasi nafaqat tashqi estetik hodisa, balki inson ruhiyati, milliy tafakkur va ijtimoiy orzu-ideallar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu esa uning ijodini jadidchilik ma'rifiy va estetik qarashlari bilan uzviy bog'laydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Usmon Nosir jadidchilik paradigmasining estetik imkoniyatlarini kengaytirilib, o'zbek poeziyasida yangi romantic-estetik yo'nalish shakillanishiga katta hissa qo'shgan. Uning badiiy merosi milliy adabiyotida insonparvarlik, ozodlik va go'zallik g'oyalarini chuqurlashuviga xizmat qildi. Demak Usmon Nosir ijodi jadidchilik estetikasining mantiqiy davomi sifatida milliy adabiy tafakkur taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etdi.

Shu jixatdan hulosa qilib qaraganda, Usmon Nosir ijodida jadidchilik paradigmasining estetik davomi sifatida baholanishi mumkin. Uning asarlarida jadidchilikning ma'rifiy va insonparvarlik g'oyalari romantic estetika bilan uyg'unlashib, o'zbek adabiyotida yangi badiiy tafakkur bosqichini shakillantirgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari" Toshkent. O'qituvchi 1995y.



2. Abdulla Avloniy. Turkiy guluston yohud axloq. Toshkent. O'qituvchi 1992y.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy Padarqush-Toshkent; G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot 1999y.
4. Cho'lpon Kecha va Kunduz-Toshkent; Yangi asr avlodi 2016 y.
5. Usmon Nosir Tanlangan asarlar; Toshkent Sharq, 2012y.
6. Nodira Rashidova Turkiston ulug'lari "Usmon Nosir haqida". G' G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 2001y.
7. Boltaboyev H. Jadidchilik va milliy tafakkur. Toshkent; Fan 2007y.
8. Normatov U, Istiqlol va adabiyot. Toshkent; Ma'naviyat 2001y.
9. Quronov D. Adabiyot nazaryasi asoslari. Toshkent; Akademya nashr 2018y.
10. Ibrohim G'ofurov. Badiiy tafakkur asoslari. Toshkent Sharq 2008y.
11. Aristotel' Poetika. Toshkent; Yangi asr avlodi, 2011y.
12. Hegel' Estetika. Toshkent; O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati 2005y.
13. Rahimov N. Jadid adabiyoti poetikasi. Toshkent Fan, 2010y.
14. Hamdamov U. O'zbek modern adabiyoti va estetik tafakkur. Toshkent; Tafakkur, 2014y.
15. Wikipedia; <https://uz.wikipedia.org>.
16. Oefen.uz; <https://oefen.uz>.
17. Tarix Sinaps; <https://sinaps.uz>.
18. Tsuull.uz; <https://tsuull.uz>.